



JAMIYATDA SIYOSIY MA'NAVIY MAFKURAVIY HAYOTDA
YOSHLARNING ÓRNI VA ISHTIROKI.

Mattiyeva Fotima Xolniyoz qizi.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti boshlang'ich
ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Anatatsiya: *Maqolada jamiyat ijtimoiy-siyosiy ma'naviy mafkuraviy hayotdayoshlarning òrniishtiroki va ularning ahamiyatli jihatlari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Yoshlarning ma'naviy jihatlari ularning dunyoqarashlari haqida soz boradi.*

Kalit sozlar: *Jamiyat, ijtimoiy-siyosiy hayot, ma'naviyat, mafkura, yoshlarga qaratilgan islohotlar.*



KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlarning òrni, ularningishtiroklari ahamiyatga moyildir. Jamiyatva yoshlar özaro bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Zero jamiyatning shakllanishi, uning taraqqiy etishi yuksalishi uchun asosiy omil, asosiy poydevor bolib xizmat qiladi. Shu sababdan so'nggi yillarda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana qadriyatlarimiz hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviyyetuk va jismonan sog'lom, barkamol voyaga yetkazish va boshqa jihatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan Özbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi Özbekistonningtaraqqiyot strategiyasi tògrisida", 2017- yil 28-iyuldagipQ-3160-son "Ma'naviy- ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishning yangi bosqichga ko'tarish tògrisida 2018-yil 14-avgustdagi -3897 PQ-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif tarbiya tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari tògrisida" qarorlari va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolaga muayyan darajada xizmat qildi.

ASOSIY QISM

Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlarda yoshlar davlat hokimiyatini shakllantiruvchi, uning faoliyatida ishtirok etuvchi mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy kuchga aylandi. Davlat va jamiyatning özaro munosabatlaridagi yoshlarning roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Özbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining markazida yoshlar va ularga qaratilgan e' tibor kuchaymoqda.

Jamiyat-(lotincha *socium*- "umumiyl") kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatları majmui hisoblanadi. Insonlar faoliyatiga ular òrtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Ijtimoiy-siyosiy hayot-siyosiy madaniyat ,siyosiy ong, ijtimoiy tafakkur va faoliyati yuksak yoshlar jamiyatda faol bo'ladilar. Xalq tinch- totuvligini davlatning rivojlanishi uchun munosib hissa qoshadilar.

Ma'naviyat- insonning,xalqning ,davlatning kuchli qudratlidir. U yo'q joyda hech qanday baxt-saodat bòlmaydi.Ma'naviyatimizga ta'sir etuvchi jihatlar shunchalar kòp, ularni sanab sanog'iga yeta olmaymiz.Ajdodlar falsafasi ham bizning boyligimiz, ma'naviyatimizdir.

Mafkura - (arabcha fikrlar majmui) muayyan ijtimoiy guruh qatlam,millat , jamiyat,davlatning manfaatlari maqsadlari, qarashlari va ularni amalga oshirish tizimi hisoblanadi.

Yoshlarga qaratilgan ishlohotlar- davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev barcha islohotlarning barqarorligini yoshlarni qo'llab quvvatlash siyosatida ko'rmoqda.Shu bois Özbekistondagi siyosiy partiylar huzurida yoshlar masalalari bilan shug'ullanuvchi "Yoshlar qanoti" tashkil etilgan.Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham yigit-qizlarning ta'lim olishi , ijtimoiy va tarbiyaviy himoyasi, uy-joyli bòlishi , bandligini uchun shart sharoitlar yaratish davlatning konstitutsiyaviy sifatida belgilandi.Yoshlarga ta'limda, tashkilot, siyosatda ham katta ahamiyat berilmoqda. Yoshlarda dunyoqarashning özgarishi bevosita ijtimoiy hayotning özgarishidizmr. Jamiyat hayotidagi özgarishlar esa fuqarolarning ijtimoiy siyosiy jarayonlarda faol ishtirokiga ham bog'liqidir.

MUAMMO VA YECHIMLAR.

Kelajak biz yoshlarning qo'lida. Shunday ekan ularning ma'naviy bilimini salohiyatini jamiyatga munosib bo'lismeni oshirishimiz, har jabhada faol bòlishimiz ,oqsamasdan oldinga intilishimiz zarur.Yoshlarning jamiyatdagi òrni , ularning ishtirokini faollashtirish jamiyatda òz mavqeiga ega bòlishi uchun" imkoniyat, harakat va natija" ,formulasini yaratishimiz zarur.Yoshlarning jamiyatga òz òrniga ega bòlishi , jahon yoshlari bilan raqobatbardosh bo'lislari uchun avvalo e'tibor, talab hamda hoxish bòlishi layoqatsizligini va berfarqlikni bartaraf etish zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va uni yaratish ko'nikmalarini hosil qilishimiz zarur..- vatanparvarlik fidoyi, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;

- yoshlar huquqlarini himoya qilish, jamiyatda munosib òrin egallashga kòmaklashish;
- raqobatbardoshjahon yoshlari bilan òzaro raqobatga kirisha olish;
- ma'naviy bilimlarni oshirish ,shu bilan birgalikda sportga ham olga borish kabi masalalarni ustivor vazifa qilib olishimiz va biz yoshlar harakat va yana harakatdan , izlanishda charchamasligimiz zarurdir.

XULOSA

Jamiyatda ijtimoiy siyosiy ,ma'naviy mafkuraviyhayotda yoshlarning òrnova ishtiroki shundan iboratki; yoshlar millat kelgusi, davlat egalari, xalqimiz kelajagining ertasi ,yurt tinchligi, oshoishtaligi hisoblanishadi. .Davlat, xalq va jamiyat muhim burch va vazifalarni bajaruvchi, davlat siyosatiga ,rivojigadaxldordirlar.Bu jarayonlarda yoshlarni faollikka , doimo harakatga chorlab qolamiz jamiyatdagi òrin va ishtirokiga bog'liqidir.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Òzbekiston yoshlari vatan ,yurt, millat kelajagi uchun olǵa. Shu maqsad yo'lida birlashadi, harakat qilamiz va natija bizniki.Yoshlari faol bo'lganman jamiyatda jamiyat demokratlashuviga, kuchaydi rivojlanadi ,ravnoq topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Òzbekiston fanlar ensiklopediyasi(200- 2005)ma 'lumotlardan foydalaniładi.
2. Quonov M .Mafkura ta'sirchanlikya uslub ma'ruza matni.
3. Yoqubova M. Axborot texnologiyalarining falsafiy asoslari- Toshkent: ÒzMU
4. Abdulhay Valiyev,ÖzME. Birinchi jild
5. Toshkent.2000
6. Prezident Sh Mirziyoyevning"ijtimoiy barqarorligini rivojlantirish haqidagi nutqida olindi

